

AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNING MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARIGA TA'SIRI: IJTIMOY-IQTISODIY TAHLIL

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur tezis aholining moliyaviy savodxonligi darajasi hamda uning mehnat migratsiyasi jarayonlariga ko'rsatadigan ta'sirini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda moliyaviy bilim va ko'nikmalarning shaxslarning migratsiya bilan bog'liq qarorlar qabul qilish jarayonidagi ahamiyati, migratsiya oqimlarining shakllanishiga ta'siri hamda migrantlarning iqtisodiy xulq-atvoridagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, mehnat migratsiyasi, iqtisodiy xulq-atvor, daromadlarni boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Globalashuv sharoitida mehnat migratsiyasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Aholining daromad darajasi, bandlik imkoniyatlari va turmush sifatidagi hududlararo tafovutlar migratsiya oqimlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu jarayonda migratsion qarorlarning asoslanganligi ko'p jihatdan shaxslarning moliyaviy savodxonlik darajasiga bog'liq.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy tushunchalar, instrumentlar va risklarni anglash, shaxsiy daromad va xarajatlarni samarali boshqarish hamda uzoq muddatli iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Yetarli moliyaviy bilimga ega bo'lmagan shaxslar migratsiya jarayonida yuqori risklarga duch kelishi, noqonuniy mehnat bozoriga kirib qolishi yoki daromadlarini samarali boshqara olmasligi ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli aholining moliyaviy savodxonligi va migratsiya jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar uni shaxsning moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish qobiliyati sifatida izohlaydi. Jumladan, World Bank talqiniga ko'ra, moliyaviy savodxonlik aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

- daromad va xarajatlarni rejalashtirish;
- jamg'arma va investitsiya ko'nikmalari;
- kredit va qarz majburiyatlarini boshqarish;
- moliyaviy risklarni baholash va oldini olish.

Mazkur ko'nikmalar shaxsning iqtisodiy xulq-atvorini shakllantiradi hamda migratsion qarorlarning oqilona bo'lishiga xizmat qiladi. Mehnat migratsiyasi asosan iqtisodiy sabablar ta'sirida yuzaga keladi. Ish o'rinlarining yetishmasligi,

past ish haqi, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi migratsiya oqimlarini kuchaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Migratsion qaror qabul qilish jarayoni murakkab bo'lib, u nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki shaxsning moliyaviy bilim darajasi bilan ham chambarchas bog'liq. Moliyaviy savodxonligi past bo'lgan shaxslar ko'pincha qisqa muddatli daromadni ustun qo'yib, uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarni yetarli baholay olmaydi. Natijada bunday migrantlar: noqonuniy mehnat faoliyatiga jalb etilishi; moliyaviy ekspluatatsiyaga uchrashi; jamg'arma shakllantira olmasligi; vatanga qaytgach iqtisodiy moslashuvda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Moliyaviy savodxonlik migratsiya jarayonining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, migratsiyaga chiqishdan oldingi bosqichda moliyaviy bilimlar risklarni baholash va xarajatlarni rejalashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan, migratsiya davrida daromadlarni boshqarish, pul o'tkazmalarini samarali amalga oshirish hamda moliyaviy firibgarliklardan himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, qaytish bosqichida jamg'armalarni investitsiyaga yo'naltirish orqali barqaror daromad manbalarini shakllantirish imkonini yaratadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lgan migrantlar o'z daromadlaridan samaraliroq foydalanadi va migratsiyaning ijobiy iqtisodiy ta'sirini oshiradi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish migratsiya jarayonlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beradi. Bu borada quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega: migratsiyaga chiqishdan oldin moliyaviy trening va maslahatlar tashkil etish; bank xizmatlari va rasmiy pul o'tkazmalaridan foydalanishni kengaytirish; qaytgan migrantlar uchun investitsiya va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish. Mazkur yondashuv migratsiyani nafaqat majburiy hodisa, balki iqtisodiy rivojlanish omiliga aylantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari aholining moliyaviy savodxonligi darajasi mehnat migratsiyasi jarayonlarining yo'nalishi, sifati va yakuniy iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonligi past bo'lgan shaxslar migratsiya qarorini qabul qilishda qisqa muddatli daromadni ustuvor deb bilib, migratsiya bilan bog'liq moliyaviy risklar, yashash xarajatlari va huquqiy majburiyatlarni yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada bunday migrantlar orasida daromadlarning beqarorligi, qarz yukining oshishi va jamg'arma shakllantirish imkoniyatlarining cheklanishi holatlari ko'proq kuzatiladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonligi nisbatan yuqori bo'lgan migrantlar daromad va xarajatlarni oldindan rejalashtiradi, rasmiy moliyaviy institutlardan foydalanishga intiladi hamda pul o'tkazmalarini uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltiradi. Bunday yondashuv migratsiya jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirib, migrantlarning vatanga qaytgach ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvini yengillashtiradi. Bu esa moliyaviy savodxonlikning migratsiya jarayonida himoya mexanizmi sifatida faoliyat yuritishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish migratsiya siyosatini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholanishi lozim. Xususan, migratsiyaga chiqishni rejalashtirayotgan shaxslar uchun majburiy bo'lmagan, biroq rag'batlantiruvchi moliyaviy maslahat va trening dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu dasturlar doirasida migrantlarga daromadlarni rejalashtirish, pul o'tkazmalarini boshqarish, kredit va qarz majburiyatlarini baholash hamda moliyaviy firibgarliklardan himoyalanih bo'yicha amaliy bilimlar berilishi zarur.

Shuningdek, qaytgan migrantlar uchun moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini birlashtirgan integratsion dasturlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu chora-tadbirlar migrantlarning jamg'armalarini iste'molga emas, balki kichik biznes va investitsion loyihalarga yo'naltirish imkonini yaratadi. Natijada migratsiya vaqtinchalik daromad manbai sifatida emas, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi omilga aylanadi.

Umuman olganda, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish mehnat migratsiyasining salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish bilan birga, uning ijobiy ta'sirini kuchaytiruvchi strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tizimli siyosat migratsiya jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirishga, aholi farovonligini mustahkamlashga va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *World Bank. Financial Consumer Protection and Literacy: Global Practices.* – Washington D.C., 2020.

2. *International Labour Organization. Global Estimates on International Migrant Workers.* – Geneva, 2022.

3. *Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va migratsiya jarayonlari.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

4. *Qurbonov A., Rasulov D. Aholining moliyaviy savodxonligi va iqtisodiy xulq-atvori.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

5. *Xolmatov Sh. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.* – Toshkent: Universitet, 2019.

INSON KAPITALI TARKIBIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING DEMOGRAFIK SIYOSAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi

Omanova Kamola Botir qizi

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi stajyor tadqiqotchisi

Jahonda mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda inson kapitaliga samarali yondashish muhim rol o'ynaydi, chunki har bir mamlakatning iqtisodiy